



FARG‘ONA VILOYATI FARG‘ONA TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 25-iyul

170-11-163-Q/25

Farg‘ona tumani hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 10-iyuldagi PQ-222-son qarori asosida qabul qilingan viloyat hokimining 2025-yil 14-iyuldagi 340-11-0-Q/25-sonli qarori to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz to‘rt yillik shonli sanasini chinakam umumxalq bayrami, ozodlik va saodat ayyomi sifatida ko‘tarinki kayfiyatda kutib olish hamda mamlakatimizning bugungi taraqqiyot darajasi, yuksalish sur‘atlariga munosib tarzda nishonlashga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 10-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz to‘rt yillik bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi PQ-222-son qarori asosida qabul qilingan viloyat hokimining 2025-yil 14-iyuldagi 340-11-0-Q/25-sonli qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 10-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz to‘rt yillik bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi PQ-222-son qarori asosida qabul qilingan viloyat hokimining 2025-yil 14-iyuldagi 340-11-0-Q/25-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur qarori bilan:

“Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!” degan ezgu g‘oyani o‘zida mujassam etgan O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz to‘rt yilligiga bag‘ishlangan bayram tadbirlarining g‘oyaviy-badiiy konsepsiyasi (keyingi o‘rinlarda -Konsepsiya) 1-ilovaga muvofiq;

O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz to‘rt yillik bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish bo‘yicha respublika komissiyasining (keyingi o‘rinlarda - Respublika komissiyasi) tarkibi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

Respublika komissiyasiga “Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!” degan bosh g‘oyani o‘zida mujassam etgan barcha shahar va tumanlar, qishloq va ovullarda munosib nishonlanishini ta’minlash uchun Konsepsiyaning asosiy ma’no-mazmuni va yo‘nalishlaridan kelib chiqqan holda tegishli chora-tadbirlar dasturlarining ishlab chiqilishi va bajarilishini ta’minlash vazifalari yuklatilganligi;

o‘tkaziladigan bayram tadbirlari Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlarning tegishli mahalliy byudjetlarning qo‘shimcha manbalari hamda jismoniy va yuridik shaxslarning ihtiyoriylik asosidagi homiylik hayriyalari hisobidan qoplanishi belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz to‘rt yillik bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish bo‘yicha tuman komissiyasining (keyingi o‘rinlarda - Tuman komissiyasi) tarkibi 1-ilovaga muvofiq;

Farg‘ona tumanida “Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!” degan bosh g‘oyani o‘zida mujassam etgan tashkiliy-amaliy, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar hamda targ‘ibot-tashviqot ishlari dasturi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman hokimining o‘rinbosari I.Toshpo‘latov:

Joylarda Mustaqillik bayramiga bag‘ishlangan chora-tadbirlarni amalga oshirishda quyidagi ustuvor yo‘nalishlarga alohida e’tibor qaratilsin, bunda,

a) yangi O‘zbekistonni barpo etish bo‘yicha sakkiz yil oldin boshlangan keng ko‘lamli islohotlar tufayli jamiyatimizda ijtimoiy-siyosiy manzarasi butunlay o‘zgarib borayotgani;

b) qisqa muddatda mamlakatimiz iqtisodiyoti shiddat bilan o‘sib, yalpi ichki mahsulotlar hajmi tarixda birinchi marotaba sezilarli darajada oshgani, “yashil” va innovatsion iqtisodiyotga o‘tish, muqobil energiya manbalarini yaratish bo‘yicha ulkan dastur va loyihalar amalga oshirilayotganligi;

v) yangilangan Konstitutsiyamizda belgilanganidek, O‘zbekiston tobora inson qadri, uning huquq va manfaatleri ulug‘lanadigan ijtimoiy davlatga aylanib borayotgani, bandlikni ta’minlash, zamonaviy ish o‘rinlarini ko‘paytirish, kambag‘allikni qisqartirish, yordamga muhtoj toifalarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha davlat dasturlari katta ijobiy natijalar berayotgani;

g) ta’lim sohasida ilgari tariximizda misli ko‘rilmagan o‘zgarishlarga olib kelayotgani, maktabgacha ta’lim tizimi, oliy ta’limda qamrov yuqori foizga yetgani, viloyatimizdagi ijod maktabi, ixtisoslashtirilgan maktablar va Prezident maktabi kabi yangi modeldagi maktablar tizimi paydo bo‘lganligi;

d) sog‘liqni saqlash, ilm-fan, IT, madaniyat, adabiyot va san’at sohalari rivojiga ham katta e’tibor berilayotgani, Parij Olimpiadasi va Paralimpiadasida sportchilarimiz ilk bor kuchli o‘n beshtalikdan joy olgani, futbol bo‘yicha 17 yoshgacha o‘smirlar jamoasi,

shuningdek, milliy terma jamoa O‘zbekiston tarixida birinchi marta jahon chempionatiga yo‘llanmani qo‘lga kiritgani;

e) “Yoshlar - Yangi O‘zbekiston bunyodkorlari” degan shior ostida navqiron avlodimizning zamonaviy bilim va kasb-hunarlar, ona tili bilan birga xorijiy tillarni IT texnologiyalarini egallashlari, tadbirkorlik bilan shug‘ullanishlari, iste’dod va qobiliyatini ro‘yobga chiqarishlari uchun har tomonlama qulay shart-sharoit yaratib berilayotgani, bunga javoban yoshlarimiz turli sohalarda dastlabki quvonchli yutuqlarga erishayotganlari;

j) keyingi yillarda shahar va qishloqlarimiz jadal sur‘atlar bilan obod bo‘lib borayotgani, “Yangi O‘zbekiston” uy-joy mavzellarini barpo etish, “Obod qishloq”, “Obod mahalla” dasturlari doirasida ulkan ishlar amalga oshirilayotgani, smart va innovatsion shaharsozlik asosida yangi shaharlar barpo etilib, ijtimoiy infratuzilma tarmoqlari rivojlanayotgani;

z) ko‘p millatli va ko‘p konfessiyali jamiyatimizdagi tinchlik, o‘zaro do‘stlik va hamjihatlik muhiti - bizning boyligimiz ekani, uni asrab-avaylash va mustahkamlash barchamizning muqaddas burchimiz bo‘lib qolishi zarurligi;

i) “Armiya va xalq - bir tanu bir jondir!” degan shior asosida Qurollik Kuchlar jangovar salohiyatini oshirish, mard va jasur askar va ofitserlarning jismoniy, ma’naviy-ruhiy tayyorgarligini yuksaltirish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasidagi ishlar amalga oshirilayotgani;

k) O‘zbekistonning Markaziy Osiyo mintaqasida yaxshi qo‘shnichilik, hamkorli va integratsiya jarayonlarini kuchaytirishdagi o‘rni va nufuzi ortib, yangi bosqichga ko‘tarilayotgani;

l) Yangi O‘zbekistonning jahon hamjamiyatida ochiq, demokratik va dunyoviy davlat sifatidagi obro‘-e’tibori va nufuzi tobora yuksalib borayotgani.

5. Tuman hokimining o‘rinbosarlari I.Toshpo‘latov, Madaniyat bo‘limi (M.Abdullayev), Ma’naviyat va ma’rifat markazi tuman bo‘limi (F.Omonova) bilan birgalikda tuman hududida o‘tkaziladigan bayram dasturlarini tayyorlashga yuqori professional mahorat va tajribaga ega bo‘lgan ssenarist va rejissyorlar, yozuvchi va shoirlar, bastakor vabaletmeystrlar, sahnarassomlari, iste’dodli yosh ijrochilar, maqom va baxshichilik san’ati vakillaridan iborat ijodiy guruhlarini keng jalb etsin.

6. Tuman hokimining o‘rinbosari I.Toshpo‘latov, Madaniyat bo‘limi (M.Abdullayev) bilan birgalikda:

ikki xafta muddatda Farg‘ona tumanida Mustaqillik bayramiga bag‘ishlab o‘tkaziladigan teatrlashtirilgan konsert tomoshasining dasturi va ssenariysini puxta ishlab chiqib, tuman komissiyasiga taqdim etsin;

ushbu konsert tomoshasini tajribali ijodkorlar hamda yuqori malakaga ega mutaxassislarni jalb etgan holda, yuksak g'oyaviy-badiiy saviyada tayyorlash choralarini ko'rsin.

7. Tuman hokimining o'rinbosari I.Toshpo'latov, Madaniyat bo'limi (M.Abdullayev), Ma'naviyat va ma'rifat markazi tuman bo'limi (F.Omonova) boshqa tegishli bo'lim va tashkilotlar bilan birgalikda bayram munosabati bilan tumanda "Ona diyor ranglar jilosida", "Vatan uchun yashaylik!", "Eng ulug', eng aziz" kabi an'anaviy ko'rik-tanlovlarni tegishli nizomlar asosida yuqori darajada o'tkazilishini ta'minlasin.

8. Iqtisodiyot va moliya bo'limi (A.Yusupov) mustaqillik bayrami arafasida o'tkaziladigan an'anaviy ko'rik-tanlovning tuman bosqichi g'olib va sovrindorlarini rag'batlantirishni mahalliy byudjetning qo'shimcha manbalari hisobidan amalga oshirish bo'yicha taklif kiritsin.

9. Tuman hokimligi Axborot xizmati (A.Ergashev) va boshqa mahalliy ommaviy axborot vositalari bilan birgalikda tumanda O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining o'ttiz to'rt yillik bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni keng yoritib borish tavsiya etilsin.

10. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilishni o'z zimnamda qoldiraman.

Farg'ona tuman hokimi



Inomov X.T

Farg'ona tumani hokimining
2025-yil 25-iyuldagi
170-11-163-Q/25-son qaroriga
1-ilova

**O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz to'rt yillik bayramiga
tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish bo'yicha tuman komissiyasi
TARKIBI**

1.	X.Inomov	-	Farg'ona tumani hokimi, <i>komissiya raisi</i>
2.	O.Abduraximov	-	Tuman hokimining birinchi o'rinbosari, <i>komissiya raisi o'rinbosari</i>
3.	I.Toshpo'latov	-	Tuman hokimining o'rinbosari, <i>komissiya raisi o'rinbosari</i>
4.	M.Qodirxonov	-	Tuman hokimining o'rinbosari, <i>komissiya raisi o'rinbosari</i>
5.	A.Akbarov	-	Tuman hokimining o'rinbosari, <i>komissiya raisi o'rinbosari</i>
6.	X.Abdug'aniyeva	-	Tuman hokimining o'rinbosari, <i>komissiya raisi o'rinbosari</i>
7.	J.Xasanov	-	Ichki ishlar bo'limi boshlig'i
8.	Lavozimiga ko'ra	-	Milliy gvardiya tuman qo'riqlash bo'limi
9.	I.Xamdamov	-	Favqulodda vaziyatlar bo'limi boshlig'i
10.	B.Mo'minov	-	Mudofaa ishlari bo'limi boshlig'i
11.	A.Yusupov	-	Iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i
12.	M.Abdullayev	-	Madaniyat bo'limi boshlig'i
13.	F.Omonova	-	Ma'naviyat va ma'rifat markazi tuman bo'linmasi boshlig'i
14.	Sh.Yuldashev	—	Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi boshlig'i
15.	X.Toshboyev	—	Tuman Tibbiyot birlashmasi boshlig'i
16.	R.Xojiqurbonov	-	Sanitariya epidemiologiya osoyishtaligi va jamoat salomatlik markazi boshlig'i
17.	M.Alijonov	-	Yoshlar ishlari agentligi tuman bo'limi boshlig'i
18.	X.Mo'minov	-	Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bo'limi boshlig'i
19.	D.Xomidov	-	O'zbekiston mahallalari uyushmasi tuman bo'limi boshlig'i
20.	Q.Xusainov	—	O'zbekiston Savdo-sanoat palatasi Farg'ona viloyati hududiy boshqarmasi boshlig'i
21.	Lavozimiga ko'ra	-	Tumandagi sport maktabi direktorlari
22.	Lavozimiga ko'ra	-	Tumandagi texnikum direktorlari
23.	A.Ergashev	-	Tuman hokimligi Axborot xizmati rahbari

Izoh: Tuman komissiya a'zolari boshqa ishga o'tganda, uning tarkibiga ushbu lavozimga yangidan tayinlangan yoki zimmasiga tegishli vazifalarini bajarish yuklangan shaxslar kiritiladi.

Farg‘ona tumani hokimining
2025-yil 25-iyuldagi
170-11-163-Q/25-son qaroriga
2-ilova

**Farg‘ona tumanida “Vatan uchun, millat uchun, xalq uchun!” degan bosh g‘oyani o‘zida mujassam etgan
tashkiliy-amaliy, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar hamda targ‘ibot-tashviqot ishlari**

DASTURI

№	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Ijro muddati	Moliyalashtirish manbasi	Mas’ul ijrochilar
I. O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz to‘rt yillik bayramiga tayyorgarlik ko‘rish bo‘yicha tashkiliy-amaliy chora-tadbirlar					
1.	O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz to‘rt yillik bayramiga bag‘ishlangan tadbirlarni o‘tkazishga tayyorgarlik ko‘rish bo‘yicha tuzilgan tuman komissiyasi tashkiliy yig‘ilishini o‘tkazish.	1. Tuman komissiyasiga qarordan kelib chiqib, belgilangan topshiriqlarni mas’ullarga yetkazish.	2025-yil 21 iyul	-	Tuman hokimining o‘rinbosari I.Toshpo‘latov
2.	Tuman hududidagi markaziy ko‘chalar, mahallalar, xiyobonlar, madaniyat va istirohat bog‘lari hududini O‘zbekiston Respublikasi	1. Hududlarni bayramona bezatish rejasini ishlab chiqish va tasdiqlash. 2. Rejada belgilangan ishlarni amalga oshirish.	2025-yil avgust tasdiqlangan reja asosida	Mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalari, jismoniy va yuridik	Tuman hokimining o‘rinbosarlari I.Toshpo‘latov, tegishli bo‘lim va tashkilotlar

	davlat mustaqilligining o'ttiz to'rt yillik bayrami mazmun-mohiyati va ahamiyatini ifoda etuvchi tasviriy targ'ibot vositalari va boshqa bezaklar asosida badiiy bezatish.			shaxslarning homiylik xayriyalari	
3.	Mustaqillik bayrami munosabati bilan tuman hududida arzonlashtirilgan qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari yarmarkalari, ko'chma savdo do'konlarini tashkil etish.	1. Savdo yarmarkalari tashkil etiladigan bozorlar ro'yxatini shakllantirish. 2. Bozorlarda arzonlashtirilgan oziq-ovqat yarmarkalarini tashkil etish.	2025-yil avgust-sentyabr	-	Tuman hokimining birinchi o'rinbosari O.Abduraximov
4.	Mustaqillik bayrami munosabati bilan keksa avlod vakillarini, xususan, Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va mehnat fronti faxriylarini har tomonlama e'zozlash, "Mehribonlik", "Saxovat" va "Muruvvat" uylarida yashayotgan shaxslar, ijtimoiy himoya daftarlariga kiritilgan hamda ko'makka muhtoj insonlarning holidan xabar olish, ularga moddiy	1. Chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish. 2. Belgilangan chora-tadbirlarni amalga oshirish va ommaviy axborot vositalarida keng yoritish.	2025-yil avgust 2025-yil avgust-sentyabr	Mahalliy byudjet va uning qo'shimcha manbalari, jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalari, tashkilotlar mablag'lari	"Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi, Madaniyat bo'limi, Yoshlar ishlari agentligi tuman bo'limi, Tuman Tibbiyot birlashmasi

	va ma'naviy yordam berish bilan bog'liq xayriya tadbirlarini o'tkazish.				
II. Ommaviy-madaniy, ma'naviy-ma'rifiy va targ'ibot-tashviqot tadbirlari					
5.	Farg'ona tumani Tinchlik MFYda joylashgan Yoshlarobod markaziy o'yingihida O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz to'rt yilligi bayramiga bag'ishlab o'tkaziladigan tumanning asosiy bayram tadbiriga tayyorgarlik ko'rish va uni yuqori saviyada o'tkazish.	1. Bayramni o'tkazish bo'yicha taniqli ssenarist va ijodkorlarni jalb etgan holda bayram ssenariysi va dasturini ishlab chiqish. 2. Taniqli rejissyor, baletmeyster, bastakor, rassom va boshqa ijodkorlar ishtirokida asosiy bayram tadbiriga tayyorgarlik mashg'ulotlarini olib borish.	2025-yil iyul-avgust Belgilangan muddatda	Hisob kitoblar asosida	Tuman hokimining o'rinbosari I.Toshpo'latov, Madaniyat bo'limi
6.	Tuman hududidagi madaniyat va istirohat bog'larida dorbozlar, polvonlar, sirk jamoalari, folklore - etnografik ansambllar, taniqli san'atkorlar, estrada xonandalari ishtirokida	1. Ommaviy bayram tomoshalarining reja-dasturlarini ishlab chiqish. 2. Reja - dasturlarda belgilangan chora-tadbirlarni amalga oshirish.	2025-yil iyul 2025-yil avgust-sentyabr	Ijrochilar mablag'lari	Tuman hokimining o'rinbosari I.Toshpo'latov, tegishli bo'lim va tashkilotlar

	ommaviy bayram tomoshalarini uyushtirish.				
7.	Mustaqillik bayrami munosabati bilan “Vatan uchun yashaylik!” “Eng ulug‘, eng aziz” kabi an’anaviy ko‘rik-tanlovini o‘tkazilishini ta’minlash.	1. Tanlov shartlarini ishlab chiqish va taqdim etilgan asarlarni saralash. 2. G‘oliblarni taqdirlashga bag‘ishlangan tadbirlarni o‘tkazish va ommaviy axborot vositalarida keng yoritish.	2025-yil avgust	Mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalari	Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi Farg‘ona tumani bo‘linmasi
8.	Tuman hududidagi madaniyat va istirohat bog‘larida ommaviy bayram tomoshalarini uyushtirish.	1. Tadbirlar rejasini ishlab chiqish. 2. Rejaga muvofiq madaniy tadbirlarni amalga oshirish. 3. Tadbirlarga dorbozlar, polvonlar, sirk jamoalari, folklor - etnografik ansambllar, sanatkorlar, estrada xonandalarini keng jalb etish.	2025-yil avgust 2025-yil avgust-sentyabr	Mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalari	Tuman hokimligi, Madaniyat bo‘limi
9.	Mustaqillik bayramiga bag‘ishlab, “Ma‘naviyat festivallarini” tashkil etish.	1. Festivalni o‘tkazish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish. 2. Respublikadan tashrif buyuradigan	2025-yil avgust-sentyabr	Ijrochilar mablag‘lari	Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi tuman bo‘linmasi, Yoshlar ishlari agentligi tuman

		targʻibot guruhlariga zarur shart-sharoitlar yaratish. 3. Festivalni oʻtkazish va ommaviy axborot vositalarida yoritish.			boʻlimi
10.	Mustaqillik bayramiga bagʻishlangan “Ona diyor ranglar jilosida” rasmlar koʻrik - tanlovini oʻtkazish.	1. Chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish. 2. Koʻrik-tanlovni yuqori saviyada oʻtkazish va tadbirni ommaviy axborot vositalarida keng yoritish.	2025-yil avgust-sentyabr	Ijrochilar mablagʻlari	Tuman hokimligi
11.	Tuman hududida “Oʻzbekiston - umumiy uyimiz” shiori ostida tumanimizda istiqomat qiluvchi millat va elatlarning urf-odat va qadriyatlarini targʻib etishga qaratilgan madaniy tadbir uyushtirish.	1. Tadbir ssenariysi va dasturini ishlab chiqish. 2. Tadbirni oʻtkazish va ommaviy axborot vositalarida keng yoritish.	2025-yil avgust	Mahalliy byudjet va uning qoʻshimcha manbalari, jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalari	Tuman hokimining oʻrinbosari I.Toshpoʻlatov
12.	Tuman hududida Oʻzbekiston Respublikasi mustaqilligining oʻttiz toʻrt yilligiga bagʻishlangan “Milliy kino oyligi” ni	1. Tadbirlar rejasi va dasturini ishlab chiqish. 2. “Milliy kino oyligi”ni yuqori saviyada oʻtkazish va	2025-yil sentyabr	Mahalliy byudjet mablagʻlari	Tuman hokimining oʻrinbosari I.Toshpoʻlatov

	o'tkazish.	ommaviy axborot vositalarida keng yoritish.			
13.	Mahallalarda istiqomat qilayotgan yoshlar o'rtasida kurash, yugurish, futbol, voleybol sport turlari bo'yicha musobaqalar o'tkazish.	1. Musobaqalarni o'tkazish reja - jadvallarini ishlab chiqish. 2. Musobaqalarga puxta tayyorgarlik ko'rish. 3. Musobaqalarni o'tkazish va g'oliblarni munosib rag'batlantirish.	2025-yil sentyabr-dekabr	-	Tuman hokimining o'rinbosari I.Toshpo'latov, sport maktablari